



# IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**2026-YIL / IYUN/6-SON,  
VI-QISM**



INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### **Bosh muharrir:**

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.  
VI-qism*

### **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Karimov Norboy G'aniyevich**

### **Muharrir:**

**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

### **Tahrir hay'ati:**

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoiraz Azimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i  
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.  
**Abdukarimova Dinara Rustamxonovna**, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.  
**Ikramov Murod Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli**, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Prosecutor of Anijan Region  
**Ochilov Farkhod**, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.  
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Ikramov Murod Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori  
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Zebo Kuldasheva**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor  
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor  
**Zebo Kuldasheva**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,  
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy  
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va  
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi  
336/3-sonli qarori bilan  
ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

ISLOMIY BANK FAOLIYATI TO'G'RISIDAGI QONUNNI AMALIYOTGA TATBIQ ETISH: O'ZBEKISTONDA MOLIYAVIY INKLYUZIVLIKNING KONTSEPTUAL, METODOLOGIK VA INSTITUTIONAL ASOSLARI .....	12
<b>Abdullayev Azamat Akbar o'g'li</b>	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЁТА В ОРГАНИЗАЦИЯХ РОЗНИЧНОЙ ТОРГОВЛИ НА ОСНОВЕ ОЦЕНКИ ОПЕРАТИВНОСТИ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО ЦИКЛА .....	17
<b>Джуманиязова Сабина Михайловна</b>	
PAXTA TOZALASH USKUNALARI DETALLARINING XIZMAT MUDDATINI OSHIRISH UCHUN GETEROKOMPOZIT POLIMER MATERIALLAR TARKIBINI ISHLAB CHIQUISH .....	22
<b>Bakirov Lutfillo Yuldoshaliyevich</b>	
O'ZBEKISTONDA ERKIN IQTISODIY ZONALAR FAOLIYATI: TAHLIL VA NATIJALAR.....	29
<b>Ubaydullayev Muxammadjon Abdusamad o'g'li</b>	
<b>Akbarov Diyorbek Ashirali o'g'li</b>	
TRANSFORMING CORPORATE GOVERNANCE TO MEET THE CHALLENGES OF MODERN BUSINESS MODELS.....	32
<b>F. Djalilov</b>	
O'ZBEKISTONDA QURILISH SOHASIDAGI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ULARNI BAHOLASH .....	41
<b>Abdullayev Axror Jaxbarovich</b>	
ЭКОНОМИКА ГОРОДСКОЙ МОБИЛЬНОСТИ: ПОТЕНЦИАЛ ЭЛЕКТРИФИКАЦИИ ОБЩЕСТВЕННОГО ТРАНСПОРТА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН .....	47
<b>Махкамова Надира Саидмуратовна</b>	
MINTAQA TUMANLARI O'RTASIDAGI INVESTITSIYA VA BANDLIK NOMUTANOSIBLIK LARI HAMDA ULARNI KAMAYTIRISH MEXANIZMLARI (BUXORO VILOYATI MISOLIDA) .....	55
<b>Ergashev Sherali Erali o'g'li</b>	
BUXORO VILOYATI IQTISODIYOTINING STRUKTURAVIY TRANSFORMATSIYASI: AGRAR MODEL DAN DIVERSIFIKATSIYALASHGAN TUZILMAGA O'TISH TENDENSIYALARI (2020-2024-YILLAR) .....	60
<b>Ergashev Sherali Erali o'g'li</b>	
IQTISODIYOTNI ERKINLASHTIRISHNING HOZIRGI BOSQICHIDA BANK TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA UNDA BOSHQARUVNING ZAMONAVIY PRINSIPLARINI JORIY ETISH.....	65
<b>Tashmatov Shuhrat Hamrayevich</b>	
MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA XIZMATLAR KO'RSATISH IMKONIYATI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI .....	71
<b>Xalimov Shaxboz Xalimovich</b>	
O'ZBEKISTONDA AVLODLARARO TRANSFERTLARNING NAZARIY ASOSLARI VA IQTISODIY MAZMUNI .....	77
<b>Mamadaliyeva Xafiza Xoldarovna</b>	
<b>To'rayev Mirzohid Hoshim o'g'li</b>	
SUN'IY INTELLEKTNING O'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI .....	83
<b>Hamidova Shahzoda Odiljanovna</b>	



IQTISODIYOTDA SHAFFOFLIK, ISHONCH VA SAMARADORLIKNI TA'MINLASHDA AUDITORLIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING AHAMIYATI VA ZARURLIGI.....	88
<b>Sabirova Nodira Komil qizi</b>	
RAQAMLI VALYUTALARNING IQTISODIYOTDAGI O'RNI VA MOLIYAVIY BARQARORLIKKA TA'SIRI .....	95
<b>Nabiyeva Zilola Saydulla qizi</b>	
XORAZM VILOYATIDA HUDUDIY IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI .....	101
<b>Avazbek Xalbekov</b>	
IMPLEMENTATION OF PARETO ANALYSIS, SENSITIVITY ANALYSIS AND CVP MODELING TOOLS AT SATURN METAL LLC .....	108
<b>Musaeva Shoira Azimovna</b>	
YOG'-MOY KORXONALARINING TA'MINOT ZANJIRINI TAKOMILLASHTIRISHDA SCOR (SUPPLY CHAIN OPERATIONS REFERENCE) MODELIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI .....	116
<b>Yuldashev Abduxakim Abdulkarimovich</b>	
ИНСТИТУЦИОНАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ ПРИЗНАНИЯ РЕЗУЛЬТАТОВ НЕФОРМАЛЬНОГО И ИНФОРМАЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНА.....	122
<b>Анвар Аллабергенов</b>	
RAQAMLI MOLIYAVIY XIZMATLARNING YASHIL INNOVATSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI.....	128
<b>Allanazarova B.K.</b>	
BIOIQTISODIYOT-BARQAROR RIVOJLANISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARIDAN BIRI.....	135
<b>Azimova Muxlisa Alisherbekovna</b>	
KICHIK BIZNES TIZIMINING SINERGETIKEKONOMETRIK MODELINI ISHLAB CHIQUISH VA UNING PARAMETRLARINI BAHOLASH.....	139
<b>Atamuratova Gulrux Muzafarovna</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SUG'URTA BOZORINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	145
<b>Xoltoyev Mirusmon Mirxamit o'g'li</b>	
KIMYO SANOATI KORXONALARINING DIVERSIFIKATSIYALASHUV DARAJASINI NORMALLASHTIRILGAN ENTROPIYA INDEKSI ASOSIDA BAHOLASH.....	149
<b>Razikov Otabek Rustamovich</b>	
O'ZBEKISTONDA TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI VA YO'NALISHLARI.....	157
<b>Matkabalova Dilorom Xalilullayevna</b>	
MINTAQA RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY KO'RSATKICHLARNI TAHLIL QILISH VA BAHOLASH. (Xorazm viloyati misolida) .....	165
<b>Bekjanov Dilmurod Yuldashevich</b>	
<b>Narmetova Dilafuz Azamatovna</b>	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ НЕФТЕГАЗОВОЙ ОТРАСЛИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ВНЕДРЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ.....	170
<b>Ахмедова Шахноза Козим кизи</b>	
KREDITLASH VA MIKROQARZ TIZIMINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI TAHLILI .....	175
<b>Elbekov Jasur Ergash o'g'li</b>	
O'ZBEKISTONDA AHOLINING UZOQ MUDDATLI FOYDALANILADIGAN TOVARLAR BILAN TA'MINLANISH DARAJASINI MODELASHTIRISH VA PROGNOZLASH.....	181
<b>Sharipova Bibijon Baxtiyorovna</b>	



ВНЕДРЕНИЕ ЦВЕТОВОЙ СИСТЕМЫ ПАКЕТОВ ДЛЯ РАЗДЕЛЬНОГО СБОРА ТВЁРДЫХ БЫТОВЫХ ОТХОДОВ В Г. ТАШКЕНТЕ: АДАПТАЦИЯ КОРЕЙСКОЙ МОДЕЛИ НА УРОВНЕ ДОМОХОЗЯЙСТВ .....	189
<b>Джусупов Кубанычбек</b>	
ATMOSFERA HAVOSINI MUHOFAZA QILISHNING HUQUQIY MEKANIZMLARI: ZAMONAVIY YONDASHUV VA INNOVATSION YECHIMLAR.....	196
<b>Shamuratov Shahzod Janibek o'g'li</b>	
SHAHARSOZLIKDA BARQAROR RIVOJLANISH KONSEPSIYASINI JORIY ETISH .....	200
<b>Eshov Sherko'zi Asatulloyevich</b>	
THE ROLE OF TAXES IN THE FORMATION OF LOCAL BUDGET REVENUES .....	205
<b>Kimsanbaeva Maftuna Bakhodirovna</b>	
DETERMINANTS OF STAKEHOLDER SATISFACTION WITH CUSTOMS CLEARANCE IN UZBEKISTAN: AN EMPIRICAL ANALYSIS .....	209
<b>Khanifakhon Solikhova</b>	
BANDLIKNI TA'MINLASHNING INNOVATSION YO'NALISHLARI (Xorazm viloyati misolida).....	213
<b>Z. Sh. Matniyozova</b>	
JIZZAX VILOYATI QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI VAHOLASH VA ISHLAB CHIQRISH HAJMINI PROGNOZLASH .....	218
<b>Umirova Gulmira Shodiboy qizi</b>	
ИННОВАЦИОННЫЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ НИЗКОУГЛЕРОДНОЙ ЭНЕРГЕТИКИ В ЭКОНОМИКЕ УЗБЕКИСТАНА.....	224
<b>Расулкулов Жамшидбек Акрамкулович</b>	
KORPORATIV BARQARORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA EKOLOGIK JAVOBGARLIKNING O'RNI VA AHAMIYATI.....	233
<b>Komilova Guli Bagandik qizi</b>	
THE ROLE OF DIGITAL INFRASTRUCTURE IN PROMOTING GREEN ECONOMIC GROWTH: EVIDENCE FROM CENTRAL ASIAN ECONOMIES.....	238
<b>Eshboyev Mirjalol Baxrom o'g'li</b>	
<b>Ozatbekova Ozodaxon Nodirbek qizi</b>	
ПОСЛЕДОВАТЕЛЬНОЕ ИНТЕРВАЛЬНОЕ ОЦЕНИВАНИЕ СРЕДНЕГО ЗНАЧЕНИЯ РАСПРЕДЕЛЕНИЯ, ПРИТЯГИВАЮЩЕГОСЯ К УСТОЙЧИВОМУ РАСПРЕДЕЛЕНИЮ.....	250
<b>Турсунов Гафур Таирович</b>	
TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY HISOBOTI MUSTAQIL AUDITINING MOHIYATI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI: BANK FAOLIYATIGA XOS RISK OMILLARINI TASNIFLASH.....	259
<b>Ibragimov Nodirbek Bahodir o'g'li</b>	
ДЕМОКРАТИК TANLOV VA PROGRESSIV SOLIQQA TORTISHNING BARQARORLIGI .....	266
<b>Malika Sharipova Maxmudjon qizi</b>	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA YASHIL ENERGETIKA MANBALARINI UTILIZATSIYA QILISHNING HUQUQIY ASOSLARI.....	273
<b>Ibadov Shoxrux Axmatilloevich</b>	
EKONOMETRIK MODELASHTIRISH ASOSIDA TEMIR YO'L TRANSPORTI IQTISODIY FAOLIYATINI PROGNOZLASH: 2030-YILGACHA SSENARIY TAHLILI.....	277
<b>Fayzullayev Javlonbek Sultonovich</b>	
TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI KORXONALARINING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA MARKETING DASTURINING O'RNI.....	283
<b>Musayeva Shoira Azimovna</b>	
O'ZBEKISTONDA ISH BERUVCHINING FUQAROLIK JAVOBGARLIGINI MAJBURIY SUG'URTA QILISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH .....	289
<b>Karimberdiyeva Dilrabo Rasulovna</b>	



BANK TAVAKKALCHILIKLARINI BOSHQARISHDA SUG'URTA INSTRUMENTLARINI QO'LLASH AMALIYOTI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI .....	296
<b>Matkarimova Ayman Jengisbaevna</b>	
O'ZBEKISTONDA AGROSUG'URTA BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY VA HUQUQIY OMILLARI .....	303
<b>Jo'rayeva Sarvinoz Baxtiyor qizi</b>	
BOSHQARISHDA SUG'URTA INSTRUMENTLARINI QO'LLASH AMALIYOTI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI .....	309
<b>Mustafayeva Sevara Rustamovna</b>	
O'ZBEKISTONDA SHAXSIY SUG'URTA XIZMATLARI BOZORINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI .....	314
<b>Qodirova Farangiz Komilovna</b>	
COMPARATIVE ANALYSIS OF TOURISTS' HOTEL SELECTION PREFERENCES IN THE MAJOR TOURISM REGIONS OF UZBEKISTAN.....	320
<b>Sardor Kuvandikov</b>	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH METODOLOGIYASINING USTUVOR YO'NALISHLARI .....	329
<b>Madenova Elmira Nizamatdinovna</b>	
BOSHQARUV SIFATINI OSHIRISHDA XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI.....	334
<b>Shoyev Davronbek Axmadjonovich</b>	
O'ZBEKISTONDA UY-JOY QURILISHI KLASTERLARINI SHAKLLANTIRISH VA TARMOQNI 2032-YILGACHA RIVOJLANTIRISHNI PROGNOZLASH.....	340
<b>Usmonov Mirumar Abdulla o'g'li</b>	
YANGI O'ZBEKISTONDA TURIZM RIVOJINING DRAYVERI SIFATIDA DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASH.....	349
<b>Jannazarova Gauzar Kaipnazarovna</b>	
<b>Raxmatova Sevinch Sobir qizi</b>	
O'ZBEKISTONDA IFRSGA O'TISH JARAYONIDA MOLIYAVIY HISOBOTLARNING BOSHQARUV QARORLARIGA TA'SIRI: UZAUTO MOTORS MISOLIDA.....	353
<b>Samaroxonov Asqarxon Jamolxon o'g'li</b>	
<b>Jo'rayeva Zahro Toshpo'latovna</b>	
SUG'URTA KOMPANIYALARINING MOLIYAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI .....	358
<b>Pyotr Kim</b>	
TOSHKENT VILOYATI BO'STONLIQ TUMANIDA TURISTIK ZONALARNI RIVOJLANTIRISHDA LOYIHAVIY BOSHQARUVNING TASHKILIYIQTISODIY AHAMIYATI (DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA).....	364
<b>Tolibboyev Zafarbek Axror o'g'li</b>	
TURIZM SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA LOYIHAVIY BOSHQARUV MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH .....	372
<b>Qarshiboyev Lochinbek Xusan o'g'li</b>	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA ASOSIY VOSITALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI TAHLILINI MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	379
<b>Muxidinov Ayubbek Nuritdinovich</b>	
QASHQADARYODA NODAVLAT UNIVERSITETLARINING TASHKILIY RIVOJLANISHI: TALABALAR VA XODIMLAR POTENSIALINI TARKIBIY VA DEMOGRAFIK TAHLIL.....	382
<b>Rahimov Sardor Uralovich</b>	



O'ZBEKISTONDA SANOAT KORXONALARINING JOYLASHUVINING HOZIRGI HOLATI.....	388
<b>Kudratov Muhammad Rustamovich</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA STATISTIK MA'LUMOTLARNI SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA TAHLIL QILISH IMKONIYATLARI.....	393
<b>Umarov Abbas Nuriddin o'g'li</b>	
ТРАНСФОРМАЦИЯ ТОРГОВО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ИНТЕГРАЦИИ УЗБЕКИСТАНА И РОССИИ: ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ОГРАНИЧЕНИЯ, СТРУКТУРНАЯ ВЗАИМОЗАВИСИМОСТЬ И СЦЕНАРИИ РАЗВИТИЯ.....	400
<b>Муниса Турдибаева</b>	
TURIZM SOHASIDA SIRKULYAR IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILY-IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	410
<b>Yuldosheva Laylo Isroilovna</b>	
MINTAQAVIY IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA SANOAT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI .....	416
<b>Oramov Jahongir Jo'rayevich</b>	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MUNOSABATLARIDA RISKLARNI BOSHQARISH.....	421
<b>Ollokulova Feruza Mansurovna</b>	
O'ZBEKISTON SANOAT KORXONALARIDA YUQORI TEXNOLOGIK USKUNALARNI XARID QILISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA UMUMIY EGALIK QIYMATI (TCO) KONSEPSIYASINING AHAMIYATI .....	428
<b>Dadamuxamedov Abduvaxob Abduvaxidovich</b>	
MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA HISOBOTNI TUZISH VA TAQDIM ETISH HAMDA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH .....	433
<b>Xalilov Bahromjon Bahodirovich</b>	
O'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIGINING SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDA ZAMONAVIY SUG'URTA MEKANIZMLARINI JORIY ETISH.....	441
<b>Kalenov K.T.</b>	
TIJORAT BANKLARIDA IPOTEKA KREDITLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI .....	445
<b>Sobirov Sayfiddin Baxrom o'g'li</b>	
ADIR EKOTIZIMLARINI BOSHQARISH SAMARADORLIGI KO'RSATKICHLARI TAHLILI .....	455
<b>Qodirov Hamidullo Madaminjonovich</b>	
AQSH VA XITOIY O'RTASIDAGI SAVDO URUSHINING JAHON IQTISODIYOTIGA TA'SIRI .....	466
<b>Maxmudillayev Bahromjon Shavkatjon o'g'li</b>	
O'ZBEKISTON FERMERLARINING XALQARO BOZORLARGA KIRISHINI KENGAYTIRISHDA EKSPORT KOOPERATSIYALARIDA ISHTIROK ETISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI MARJINAL BAHOLASH .....	472
<b>Tursunqulov G'olibjon Shavkat o'g'li</b>	
TECHNOLOGY AND MODERN TOURISM: PAVING THE WAY FOR A SUSTAINABLE ENVIRONMENT.....	482
<b>Freshta Qayoumi</b>	
SUG'URTA KOMPANIYALARIDA INVESTITSIYA PORTFELINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEKANIZMLARI .....	488
<b>Ergashev Olim Kenjayevich</b>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SUG'URTA SEKTORIDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI .....	496
<b>Ergashev Olim Kenjayevich</b>	
ВЛИЯНИЕ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ НА ПОВЫШЕНИИ РЕСУРСНОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЭКОНОМИКИ.....	503
<b>Т.В. Ким</b>	



TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY HISOBOTI AUDITIGA KOMPYUTERLASHTIRILGAN AUDIT USULLARI (CAATS) VA TAHLILYI AMALLARNI JORIY ETISH .....	509
<b>Ibragimov Nodirbek Baxodir o'g'li</b>	
JAMIYAT EVOLYUSIYASIDA BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHNING AHAMIYATIGA DOIR NAZARIY TALQINLAR.....	516
<b>Aripov Oybek Abdullayevich</b>	
<b>Rustamov Dilshodjon Shaydullo o'g'li</b>	
SUG'URTA FAOLIYATINI BOSHQARISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI.....	523
<b>Umarova Aziza Hamidovna</b>	
O'ZBEKISTON MAJBURIY SUG'URTA BOZORIDA TARIF SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI.....	529
<b>Qo'ziyeva Nozima G'ayrat qizi</b>	
O'ZBEKISTONDA XORIJIY INVESTITSIYALARNI FAOL JALB QILISH XUSUSIDA.....	535
<b>Artikbayev Dilshod Mumindjanovich</b>	
O'ZBEKISTONDA DUKKAKLI EKINLAR BOZORIDA NARX O'ZGARUVCHANLIGI VA FERMERLARNING DAROMAD BARQARORLIGI .....	541
<b>Islamova Malika Ilyos qizi</b>	
ISLOM MOLIYASI VA YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK BIZNES MOLIYAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH .....	547
<b>Jo'raqulova Muhlisa Jahongir qizi</b>	
СОВРЕМЕННЫЕ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ УГРОЗЫ ФИНАНСОВОЙ БЕЗОПАСНОСТИ СТРАХОВЫХ КОМПАНИЙ И ПРИЧИНЫ ИХ ВОЗНИКНОВЕНИЯ .....	553
<b>Петр Ким</b>	
BAA VA O'ZBEKISTONDA ISLOMIY BANKCHILIK TO'G'RISIDAGI QONUNLARNING QIYOSIY-HUQUQIY TAHLILI .....	559
<b>Bektemirov Muhiddin Shomirza o'g'li</b>	
QURILISH KORXONALARIDA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDAGI BOSHQARUV TIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI.....	564
<b>Arifdjanova Zilola Dilshodovna</b>	
YENGIL SANOAT KORXONALARI FAOLIYATIDA MARKETING KOMMUNIKATSIYALARIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH (Buxoro viloyati to'qimachilik korxonalarini misolida).....	570
<b>Muxsinov Bekzod Toxirovich</b>	
JAHON TURIZMIDA DIVERSIFIKATSIYA, GLOBALLASHUV, GLOKALLASHUV TENDENSIYALARI .....	579
<b>Raxmatulla Hayitboyev</b>	
ANALYSIS OF FINANCIAL SUPPORT MANAGEMENT MECHANISMS IN JOINT-STOCK COMPANIES .....	585
<b>Abduboqiyev Muxammad Sharofiddinovich</b>	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA SHERIKCHILIK ALOQALARI MEKANIZMINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH (Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida) .....	591
<b>Muratbaeva Aziza Nasir qizi</b>	
IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISHDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASHNING JAHON TAJRIBALARINI O'RGANISH.....	599
<b>Fayziyev Manuchehr Sharofiddinovich</b>	
INVESTITSIYA DASTURLARI VA LOYIHALARINI BOSHQARISHDA RAQAMLI MENEJMENTNING MOHIYATI VA O'RNI .....	604
<b>Ahmedova Dilnoza Muzaffarovna</b>	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI SUG'URTA EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARI .....	607
<b>Nomozova Qumri Isoyevna</b>	



YOSHLAR TADBIRKORLIGI: TUSHUNCHAVIY MOHIYATI VA  
BOSHQARUVINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ..... 613  
[Gulomqodirova Ma'mura Saydumarxon qizi](#)



# YOSHLAR TADBIRKORLIGI: TUSHUNCHAVIY MOHIYATI VA BOSHQARUVINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Gulomqodirova Ma‘mura Saydumarxon qizi  
Qo‘qon universiteti doktranti  
E-mail: [mamurakokanduniversity@gmail.com](mailto:mamurakokanduniversity@gmail.com)  
ORCID: 0009-0001-8174-9173

**Annotatsiya.** Maqolaning maqsadi yoshlar tadbirkorligining tushunchaviy mohiyatini zamonaviy ilmiy qarashlar asosida tahlil qilish, uning rivojlanishiga ta‘sir etuvchi omillarni aniqlash hamda ushbu yo‘nalishni boshqarishning o‘ziga xos xususiyatlari va samarali mexanizmlarini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat. Tadqiqotda qiyosiy tahlil, mantiqiy umumlashtirish va tizimli yondashuv usullaridan foydalanilgan. Xorijiy, MDH va milliy olimlarning qarashlari tahlili asosida yoshlar tadbirkorligining tushunchaviy mohiyati ochib berilgan va uni an‘anaviy tadbirkorlikdan ajratib turuvchi xususiyatlar — cheklangan kapital, yuqori innovatsion va raqamli faollik, tavakkalchilikka moyillik tizimlashtirilgan. Ushbu faoliyatni boshqarishning ko‘p subyektli (davlat–biznes–yoshlar) tabiati va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi ko‘rsatib berilgan. Rasmiy statistik ma‘lumotlar asosida O‘zbekistonda yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash holati tahlil qilinib, takomillashtirishni talab etuvchi jihatlar aniqlangan. Ilmiy yondashuvda yoshlar tadbirkorligi faqat yosh omili bilan cheklanadigan tushuncha sifatida emas, balki alohida innovatsion va ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida talqin etiladi. Tadqiqot natijalari asosida institutsional qo‘llab-quvvatlash va imtiyozli kreditlash mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** yoshlar tadbirkorligi, startup, tadbirkorlik faoliyati, boshqaruv, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, davlat qo‘llab-quvvatlashi, imtiyozli kreditlash, innovatsion faollik.

**Abstract.** The purpose of the article is to provide a theoretical and methodological substantiation of the conceptual essence of youth entrepreneurship and to systematize the features of its management mechanism. The study employs comparative analysis, logical generalization and a systemic approach. Based on the analysis of the views of foreign, CIS and national scholars, the conceptual essence of youth entrepreneurship is revealed, and the features distinguishing it from traditional entrepreneurship — limited capital, high innovative and digital activity, propensity to take risks — are systematized. The multi-stakeholder (state–business–youth) nature of managing this activity and its organizational-economic mechanism are demonstrated. Drawing on official statistical data, the state of youth entrepreneurship support in Uzbekistan is analyzed and areas requiring further improvement are identified. The author’s approach lies in interpreting youth entrepreneurship not as a mere age segment but as a distinct innovative-social phenomenon. Based on the findings, proposals are developed for improving institutional support and the preferential lending mechanism.

**Keywords:** youth entrepreneurship, startup, entrepreneurial activity, management, organizational-economic mechanism, state support, preferential lending, innovative activity.

**Аннотация.** Цель статьи — теоретико-методологическое обоснование понятийной сущности молодёжного предпринимательства и систематизация особенностей механизма его управления. В исследовании использованы методы сравнительного анализа, логического обобщения и системного подхода. На основе анализа взглядов зарубежных, СНГ и национальных учёных раскрыта понятийная сущность молодёжного предпринимательства и систематизированы особенности, отличающие его от традиционного предпринимательства — ограниченный капитал, высокая инновационная и цифровая активность, склонность к риску. Показаны многосубъектный (государство–бизнес–молодёжь) характер управления данной деятельностью и её организационно-экономический механизм. На основе официальных статистических данных проанализировано состояние поддержки молодёжного предпринимательства в Узбекистане и определены аспекты, требующие дальнейшего совершенствования. Авторский подход



состоит в трактовке молодёжного предпринимательства не как простого возрастного среза, а как особого инновационно-социального явления. По результатам исследования разработаны предложения по совершенствованию институциональной поддержки и механизма льготного кредитования.

**Ключевые слова:** молодёжное предпринимательство, стартап, предпринимательская деятельность, управление, организационно-экономический механизм, государственная поддержка, льготное кредитование, инновационная активность.

## KIRISH

Yoshlar tadbirkorligi zamonaviy iqtisodiy tizimning eng faol va istiqbolli yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Mazkur faoliyat yosh avlodning innovatsion fikrlashi, tashabbuskorligi, tavakkalchilikni qabul qilish qobiliyati hamda yangi iqtisodiy imkoniyatlarni izlashga intilishi bilan tavsiflanadi. O'zbekistonda yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishning dolzarbligi mamlakatning demografik xususiyatlari bilan bevosita bog'liq. Mamlakatda 30 yoshgacha bo'lgan 19 milliondan ortiq yoshlar istiqomat qilib, ular umumiy aholining 55 foizini tashkil etadi. Shu bilan birga, har yili 600 ming nafardan ortiq yosh mehnat bozoriga kirib kelmoqda, kelgusi o'n yillikda esa ushbu ko'rsatkich 1 million nafarga yetishi prognoz qilinmoqda. Mazkur demografik jarayon yoshlarning bandligini ta'minlash, ularning tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash hamda yangi ish o'rinlarini yaratishni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylantirmoqda. Aynan shu omil yoshlar bandligini ta'minlash va ularni tadbirkorlikka jalb etishni davlat siyosatining ustuvor vazifasiga aylantiradi. 2024-yilning "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" deb e'lon qilinishi ushbu masalaning strategik ahamiyatini yana bir bor tasdiqladi.

Shu bilan birga, yoshlar tadbirkorligining nazariy-metodologik asoslari va uni boshqarishning o'ziga xos jihatlari yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Tushunchaning an'anaviy tadbirkorlikdan farqi, uning boshqaruv mexanizmidagi xususiyatlar hamda davlat qo'llab-quvvatlash choralarining samaradorligi masalasi qo'shimcha ilmiy tahlilni talab etadi.

Tadqiqotning obyekti — yoshlar tadbirkorligi faoliyati va uni boshqarish jarayoni. Tadqiqotning predmeti — yoshlar tadbirkorligining tushunchaviy mohiyati va boshqaruvining o'ziga xos xususiyatlari yuzasidan vujudga keladigan tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar.

Tadqiqotning maqsadi — yoshlar tadbirkorligining tushunchaviy mohiyatini ochib berish va boshqaruv mexanizmini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: tadbirkorlik va yoshlar tadbirkorligi tushunchalarining evolyutsiyasini tahlil qilish; yoshlar tadbirkorligini ajratib turuvchi xususiyatlarni tizimlashtirish; boshqaruvning o'ziga xos jihatlari aniqlash; O'zbekistonda qo'llab-quvvatlash holatini baholash va amaliy takliflar ishlab chiqish.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadbirkorlik tushunchasi iqtisodiy fan tarixida uzoq rivojlanish yo'lini bosib o'tgan. Ushbu atama ilk bor XVIII asrda fransuz iqtisodchisi Richard Cantillon tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan bo'lib, u tadbirkorni noaniqlik va tavakkalchilik sharoitida faoliyat yurituvchi iqtisodiy subyekt sifatida tavsiflagan<sup>1</sup>. Keyinchalik Jan Batist Sey tadbirkorning ishlab chiqarish omillarini birlashtirishdagi roliga alohida e'tibor qaratgan. XX asrda Jozef Shumpeter tadbirkorlikni innovatsiyalar bilan bog'lab, tadbirkorni iqtisodiy taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida talqin qilgan<sup>2</sup>. Piter Druker esa tadbirkorlikni o'zgarishlarni aniqlash va ulardan iqtisodiy qiymat yaratishga qaratilgan faoliyat deb baholagan<sup>3</sup>.

MDH olimlaridan A.V. Busigin tadbirkorlikni mustaqil, tavakkalchilik va iqtisodiy javobgarlik bilan bog'liq faoliyat sifatida<sup>4</sup>, O.S. Vixanskiy esa uni strategik maqsadlarga erishishga qaratilgan iqtisodiy faoliyat sifatida tavsiflaydi<sup>5</sup>. Milliy olimlardan Q.X. Abdurahmonov tadbirkorlikni aholi bandligini ta'minlash va inson kapitalidan samarali foydalanish vositasi sifatida<sup>6</sup>, A. O'lmasov mulkiy manfaatdorlikka asoslangan mustaqil xo'jalik yuritish shakli sifatida<sup>7</sup>, Sh.Sh. Shodmonov esa bozor iqtisodiyotining muhim instituti sifatida yondashadi<sup>8</sup>. Mazkur qarashlar umumlashtirilgan holda 1-jadvalda keltirilgan.

1 Richard Cantillon *Essai sur la Nature du Commerce en Général*. – London: Fletcher Gyles, 1755.

2 Schumpeter J.A. *The Theory of Economic Development*. – Cambridge: Harvard University Press, 1934. – 255 p.

3 Drucker P.F. *Innovation and Entrepreneurship: Practice and Principles*. – New York: Harper & Row, 1985.

4 Busigin A.V. *Predprinimatelstvo: Uchebnik*. – M.: Delo, 2000.

5 Oleg S. Vikhansky, Aleksandr I. Naumov. *Management*. – Moskva: Gardariki, 2008

6 Qudratkhon Abdurahmonov. *Inson taraqqiyoti. Darслиk*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2013.

7 Aziz O'lmasov. *Iqtisodiyot nazariyasi*. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2014.

8 Shavkat Shodmonov. *Iqtisodiyot nazariyasi*. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2010.



1-jadval  
Tadbirkorlik va yoshlar tadbirkorligi bo'yicha olimlarning qarashlari<sup>9</sup>

No	Olim	Tadbirkorlikka yondashuvi va yoshlar tadbirkorligiga oid jihat
1	R. Cantillon	Tadbirkor — noaniqlik va tavakkalchilik sharoitida ishlovchi sub'ekt; bu yondashuv yoshlarning yangi biznes tashabbuslaridagi faolligini izohlaydi.
2	J. Shumpeter	Tadbirkorlik — yangi mahsulot, texnologiya va bozorlarni yaratuvchi innovatsion faoliyat; yoshlar innovatsion tadbirkorlikning asosiy qatlami.
3	P. Druker	Tadbirkorlik — o'zgarishlardan foydalanib qiymat yaratish; yoshlarning yangi bilim va texnologiyalarni tez o'zlashtirishi ustunlik beradi.
4	O.S. Vixanskiy	Tadbirkorlik — strategik maqsadlarga erishishga qaratilgan faoliyat; yosh tadbirkorlar muvaffaqiyati boshqaruv ko'nikmalariga bog'liq.
5	Q.X. Abdurahmonov	Tadbirkorlik — bandlikni ta'minlash va inson kapitalidan foydalanish vositasi; yoshlarni biznesga jalb etish muhim yo'nalish.
6	Sh.Sh. Shodmonov	Tadbirkorlik — resurslardan samarali foydalanib foyda olishga qaratilgan bozor instituti; yoshlar yangi biznes sub'ektlarini shakllantiradi.

Mavjud ishlardan farqli ravishda, ushbu maqolada yoshlar tadbirkorligi faqat yosh mezonini bo'yicha tasniflanuvchi faoliyat emas, balki o'ziga xos innovatsion-ijtimoiy hodisa sifatida qaraladi hamda uning boshqaruvi ko'p subyektli (davlat–biznes–yoshlar) yondashuv nuqtai nazaridan tahlil etiladi. Aynan shu jihat tadqiqotning ilmiy yangiligini belgilaydi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda qiyosiy taqqoslash, mantiqiy umumlashtirish, tizimli va statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Qiyosiy taqqoslash usuli xorijiy, MDH va milliy olimlarning tadbirkorlik hamda yoshlar tadbirkorligiga oid qarashlarini solishtirish, ularning umumiy va farqli jihatlarni aniqlash orqali tushunchaning mohiyatini ochishga xizmat qildi. Tizimli yondashuv yoshlar tadbirkorligini boshqarishni alohida xususiyatlar yig'indisi emas, balki subyektlararo munosabatlar mexanizmi sifatida ko'rib chiqish imkonini berdi. Statistik tahlil esa O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni, davlat dasturlari va rasmiy axborot manbalaridagi ma'lumotlar asosida amalga oshirildi [9; 10; 11]. Bunda sun'iy shakllantirilgan yoki asossiz kiritilgan raqamlardan foydalanilmadi — barcha ko'rsatkichlar rasmiy manbalarga tayanadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadbirkorlik nazariyalarining evolyutsiyasi shuni ko'rsatadiki, uning asosini tashabbuskorlik, innovatsion yondashuv, tavakkalchilikni qabul qilish va iqtisodiy imkoniyatlardan samarali foydalanish tashkil etadi. Yoshlar tadbirkorligi ushbu jarayonning alohida ko'rinishi bo'lib, u yoshlarning iqtisodiy faolligi, innovatsion salohiyati va bandligini oshirishga xizmat qiladi. Shunga ko'ra, yoshlar tadbirkorligini muayyan yosh toifasiga mansub shaxslarning foyda olish, iqtisodiy mustaqillikka erishish hamda ijtimoiy muammolarga innovatsion yechimlar taklif etishga qaratilgan tadbirkorlik faoliyati sifatida ta'riflash mumkin.

Yoshlar tadbirkorligini an'anaviy tadbirkorlikdan ajratib turuvchi asosiy xususiyatlar quyidagilardan iborat: yuqori innovatsion va texnologik faollik; raqamli iqtisodiyot imkoniyatlaridan (elektron tijorat, onlayn marketing, sun'iy intellekt) keng foydalanish; tavakkalchilikka nisbatan yuqori moyillik; yangi bozor segmentlariga tez moslashuvchanlik. Shu bilan birga, yosh tadbirkorlar cheklangan moliyaviy resurslar, yetarli amaliy tajribaning yo'qligi va biznes aloqalarining torligi kabi cheklolarga duch keladilar. Demak, yoshlar tadbirkorligi bir vaqtning o'zida katta imkoniyatlar va muayyan risklarni mujassamlashtiruvchi faoliyat turidir.

Ushbu xususiyatlar yoshlar tadbirkorligini boshqarishning o'ziga xos yondashuvlarni talab etishini bildiradi. Boshqaruvning asosiy xususiyatlari 2-jadvalda tizimlashtirilgan.


<sup>9</sup> Manba: adabiyotlar tahlili asosida muallif tomonidan tuzilgan.

2-jadval  
Yoshlar tadbirkorligini boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari<sup>10</sup>

№	Boshqaruv xususiyati	Yoshlar tadbirkorligidagi namoyon bo'lishi
1	Innovatsion boshqaruv	Startaplar, raqamli xizmatlar va yangi biznes modellarini joriy etishga yo'naltirilganlik.
2	Moslashuvchan boshqaruv	Bozor talabi va iste'molchilar ehtiyojlaridagi o'zgarishlarga qisqa muddatda javob berish.
3	Raqamli boshqaruv	Elektron tijorat, onlayn marketing va raqamli platformalarga tayangan holda ish yuritish.
4	Resurslarni optimallashtirish	Cheklangan boshlang'ich kapital sharoitida resurslarni samarali taqsimlash.
5	Risklarni boshqarish	Yangi bozor va innovatsion loyihalar bilan bog'liq noaniqliklarni aniqlash va kamaytirish.
6	Inson kapitaliga yo'naltirilganlik	Yosh tadbirkorlarning kasbiy tayyorgarligi va biznes ko'nikmalarini oshirish.
7	Tarmoq hamkorligiga asoslanish	Investorlar, mentorlar, biznes inkubatorlar va ta'lim muassasalari bilan hamkorlik.
8	Ijtimoiy yo'naltirilganlik	Bandlik, ekologiya va mahalliy rivojlanish masalalariga faol hissa qo'shish.

Jadvaldan ko'rinadiki, yoshlar tadbirkorligini boshqarishda innovatsion, raqamli va tarmoq hamkorligiga asoslangan yondashuvlar alohida o'rin tutadi. Bu xususiyatlar boshqaruvni alohida menejment funksiyalari yig'indisi emas, balki davlat, biznes muhiti va yoshlarning o'zaro ta'siriga asoslangan tashkiliy-iqtisodiy mexanizm sifatida qarash zarurligini ko'rsatadi.

O'zbekistonda yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash tizimi so'nggi yillarda jadal rivojlandi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi 8 yilda yosh tadbirkorlar soni uch baravar ko'payib, bugungi kunda ular mamlakatdagi biznes vakillarining qariyb 35 foizini tashkil etmoqda [10; 11]. Ushbu ulush 1-rasmda aks ettirilgan.



1-rasm. Tadbirkorlik sub'ektlari tarkibida yosh tadbirkorlarning ulushi (2025-yil)<sup>11</sup>

Qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlari va 2024-yildagi natijalari 3-jadvalda keltirilgan.

<sup>10</sup> Manba: muallif tomonidan tuzilgan.

<sup>11</sup> Manba: [president.uz](https://president.uz) rasmiy ma'lumotlari asosida tuzilgan.



Ko'rsatkich	Qiymati
Yoshlar tadbirkorligiga ajratilgan kredit	4 trln so'm
Ishga tushirilgan loyihalar soni	150 ming
Yaratilgan ish o'rinlari	325 ming
"Yoshlar daftari" orqali ko'rsatilgan yordam	345 mlrd so'm (180 ming yosh)
Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish jamg'armasi	100 mln dollar
Bir yosh tadbirkorga imtiyozli kredit (yuqori chegara)	5 mlrd so'mgacha (7 yil)

Keltirilgan ma'lumotlar davlat qo'llab-quvvatlashining keng ko'lamini ko'rsatadi. Shunga qaramay, tahlil jarayonida takomillashtirishni talab etuvchi ayrim jihatlar aniqlandi. Birinchidan, moliyaviy resurslar asosan imtiyozli kreditlash orqali taqsimlanib, grant va ulushli moliyalashtirish (venchur) mexanizmlari nisbatan cheklangan. Ikkinchidan, yosh tadbirkorlarning amaliy tajribasi yetishmasligi mentorlik va biznes inkubatorlar xizmatlariga bo'lgan ehtiyojni oshiradi, biroq bu infratuzilma hududlar kesimida notekis rivojlangan. Uchinchidan, qo'llab-quvvatlash ko'rsatkichlari soni bo'yicha baholanmoqda — ajratilgan mablag', loyihalar soni, lekin ularning uzoq muddatli barqarorligi va yashab qolish darajasi" bo'yicha monitoring tizimini yanada kuchaytirish zarur. To'rtinchidan, hududiy tafovutlar sezilarli — ayrim hududlarda yoshlar bandligini ta'minlash masalasi dolzarbligicha qolmoqda [10].

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlil asosida yoshlar tadbirkorligi zamonaviy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi va iqtisodiy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchlaridan biri ekanligi aniqlandi. U faqat daromad olishga qaratilgan faoliyat emas, balki yoshlarning innovatsion salohiyati, tashabbuskorligi va iqtisodiy faolligini namoyon etuvchi innovatsion-ijtimoiy hodisadir. Boshqaruv jihatidan yoshlar tadbirkorligi innovatsion, raqamli va tarmoq hamkorligiga asoslangan yondashuvlarni hamda davlat–biznes–yoshlar o'rtasidagi ko'p subyektki mexanizmi talab etadi.

Aniqlangan jihatlarni takomillashtirish bo'yicha quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

Moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish — imtiyozli kreditlash bilan bir qatorda grant va venchur (ulushli) moliyalashtirish ulushini oshirish, innovatsion startaplar uchun alohida fond mexanizmini kuchaytirish;

Biznes inkubatorlar va mentorlik institutlarini hududlar kesimida teng rivojlantirish, "g'oya — startap — korxonaga" bosqichlarini uzluksiz qo'llab-quvvatlash tizimini joriy etish;

Qo'llab-quvvatlash samaradorligini baholashda miqdoriy ko'rsatkichlardan (ajratilgan mablag') sifat ko'rsatkichlariga (korxonalarining yashab qolish darajasi, eksport va bandlik barqarorligi) o'tish;

Yosh tadbirkorlarning moliyaviy va raqamli savodxonligini oshirish bo'yicha muntazam o'quv dasturlarini joriy etish;

Ishsiz yoshlar ulushi yuqori bo'lgan hududlarga mo'ljallangan maqsadli (targetli) qo'llab-quvvatlash dasturlarini ishlab chiqish.

Mazkur takliflarning amalga oshirilishi yoshlar tadbirkorligini boshqarish samaradorligini oshirish, ularning bozor sharoitlariga moslashuvchanligini kuchaytirish va biznesning barqaror rivojlanishini ta'minlash imkonini beradi. Keyingi tadqiqotlarda yoshlar tadbirkorligini boshqarish mexanizmini miqdoriy (ekonometrik) baholash istiqbolli yo'nalish bo'lib qoladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Cantillon R. Essai sur la nature du commerce en général. – London, 1755.
2. Schumpeter J.A. The Theory of Economic Development. – Cambridge: Harvard University Press, 1934. – 255 p.
3. Drucker P.F. Innovation and Entrepreneurship: Practice and Principles. – New York: Harper & Row, 1985.
4. Busigin A.V. Predprinimatelstvo: Uchebnik. – M.: Delo, 2000.
5. Vixanskiy O.S. Strategicheskoye upravleniye: Uchebnik. – M.: Gardarika, 1998.

<sup>12</sup> Manba: [9; 10; 11] asosida tuzilgan.



6. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: darslik. – Toshkent: “Iqtisod-Moliya”, 2019.
7. O’lmasov A., Vahobov A.V. Iqtisodiyot nazariyasi: darslik. – Toshkent: “Iqtisod-Moliya”, 2014.
8. Shodmonov Sh.Sh., G’afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi: darslik. – Toshkent: “Iqtisod-Moliya”, 2010.
9. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son “O’zbekiston — 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo’llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to’g’risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/-6811936>
10. Prezident yoshlar bilan samimiy muloqot qildi. – O’zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti, 2025-yil 14-fevral.
11. Yoshlarning tashabbuslarini qo’llab-quvvatlashga doir qo’shimcha imkoniyatlar belgilandi. – O’zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti, 2026-yil 24-fevral.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

---

**2026. № 6/6**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>